

**Gaz ta'minoti tizimida mavjud lavozimlarning qisqacha  
vazifa va funksiyalari to'g'risida  
MA'LUMOT**

T/r	Lavozim nomi	Asosiy vazifasi
1	Boshliq	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Gaz ta'minoti bo'limida yo'nalishlar bo'yicha umumiy rahbarlik qiladi. Jamoada ijro intizomi va "Odob-axloq" qoidalariga rioya etilishini ta'minlaydi;</li> <li>- Tuman/shahar hududidagi mavjud iste'molchilarga tabiiy va suyultirilgan gazni to'liq va xavfsiz yetkazib berish;</li> <li>- Energoresurlardan oqilona foydalanish va energotejamkor texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini tashkil etadi;</li> <li>- Xodimlarining ish taqsimotini belgilaydi va natijadorligini nazorat qilib boradi;</li> <li>- Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilgan holda yuzaga kelgan tizimli muammolarni bartaraf etish choralarini ko'radi.</li> </ul>
2	Bosh muhandis	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Gaz ta'minoti bo'limida yo'nalishlar bo'yicha texnik va texnologik tadbirlarga rahbarlik qiladi.</li> <li>- Gaz taqsimlash stansiyasi (GTS)dan qabul qilib olingan tabiiy gazni yo'qotishlarsiz iste'molchilarga yetkazib berishda nazorat monitoringini olib boradi;</li> <li>- Iste'molchilarga tabiiy gazni bir maromda, xavfsiz yetkazib berish choralarini ko'rish;</li> <li>- Tabiiy gaz obyektlari va quvurlarini ishchi va soz holatda bo'lishini ta'minlab, iste'molchilarga yetkazib berilayotgan tabiiy gaz bir me'yorda yetkazilishini muvofiqlashtiradi.</li> <li>- Gaz ta'minoti tizimini kuz-qish mavsumiga puxta tayyorlash bo'yicha rejali tadbirlarni olib boradi.</li> </ul>

3	Gaz ta'minoti obyektlaridan samarali foydalanish xizmati boshlig'i	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Gaz ta'minoti obyektlarida texnik va texnologik tadbirlarga rahbarlik qiladi;</li> <li>- Gaz tarmoqlari xavfsizligini, shuningdek, himoya zonalarini barqarorligini ta'minlaydi;</li> <li>- Gaz tarmoqlari va gaz tarqatish punktlaridan xavfsiz foydalanish qoida talablariga rioya etilishini, gaz uskunalaridan xavfsiz foydalanish bo'yicha sharoitlar yaratilishini nazorat qilish;</li> <li>- Gaz ta'minoti tizimini kuz-qish mavsumiga puxta tayyorlash bo'yicha rejali tadbirlarni olib boradi.</li> </ul>
4	Gaz ta'minoti obyektlaridan samarali foydalanish xizmati ustasi	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Gaz jihozlari, quvurlar, gaz taqsimlash punktlari va ulardagi inshootlardan sifatli foydalanish hamda ularni ta'mirlanishini ta'minlash, harakatdagi gaz quvur va gaz taqsimlash punktlaridan xavfsiz uslubda foydalanishni ta'minlash.</li> </ul>
5	Tarmoqlarga xizmat ko'rsatish chilangari	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Biriktirilgan hududdagi gaz tarmoqlari va undagi qurilmalar hamda gaz taqsimlash punktlarini soz holatda ishlashini nazorat qilish, reja-grafikka asosan texnik ko'rikdan o'tkazish, tabiiy gazdan samarali foydalanish va gaz yo'qotilishini oldini olish, gaz quvurlari va gaz taqsimlash punktlariga egalik qilishi, gaz quvurlariga noqonuniy ulanish holatlariga yo'l qo'ymaslik.</li> </ul>
6	Elektrgazpayvandchi	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Gaz tarmoqlarini montaj qilish, undagi nosozliklar, gaz sizib chiqish holatlarini bartaraf etish hamda mukammal va joriy ta'mirlash ishlarini bajaradi.</li> </ul>
7	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha yetakchi muhandis	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Korxonada xodimlar uchun xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlarini yaratilishini, shuningdek sohada faoliyat olib borayotgan xodimlarning shaxsiy himoya vositalaridan to'liq va to'g'ri foydalanishi hamda ularning ish vaqtida doimiy va to'liq maxsus kiyim-boshlarda mehnat faoliyatini olib borishlarini nazorat qiladi va talab qiladi.</li> </ul>
8	Dispetcher	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Iste'molchilar kesimida yetkazib berilgan soatlik va kunlik tabiiy gaz hajmlarini tezkor hisobotlarini yuritadi;</li> <li>- Tabiiy gaz quvurlaridagi gaz sizish holatlari bo'yicha iste'molchilardan kelib tushgan murojaat (buyurtma)larni qabul qilib, holatni bartaraf etish bo'yicha tegishli mas'ullarga yo'naltiradi, nazorat qiladi.</li> </ul>

9	Avariya tiklash ishlari bo'yicha navbatchi chilangar	- Tabiiy gaz quvurlaridagi gaz sizish holatlari bo'yicha tushgan murojaat (buyurtma)larga asosan tezkorlikda joyiga chiqqan holda gaz sizish holatlarini bartaraf etadi.
11	Nazorat va murojaatlar bo'limi yetakchi mutaxassisi	- Gaz ta'minoti bo'limiga kelib tushgan xatlar, hujjatlar va murojaatlarni belgilangan tartibda ijrosi bo'yicha nazoratini yuritadi. Tahlilini olib boradi.
12	Hisob bo'yicha texnik	- Gaz ta'minoti bo'limidagi barcha asosiy vositalar, tovar moddiy boyliklar va inventarlar hisobini yuritish, ularni bus-butun saqlanishini nazorat qiladi.
13	Mahallabay ishlash xizmat boshlig'i	- Mahallabay ishlash tizimini yo'lga qo'ygan holda yirik hududlar orqali yetkazib berilgan va qabul qilib olingan tabiiy gaz hajmlarini to'liq iste'molchilarga yetkazib berish bo'yicha umumiy nazoratni tegishli bo'limlar bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etadi. Iqtisodiy samarasiz, ma'nan eskirgan, nostandart tabiiy gazdan foydalanayotgan gaz uskunalarini energiya tejamkor jihozlarga almashtirish bo'yicha mahalla faollari bilan targ'ibotlar olib borilishini tashkil etadi. Hududlardagi elektron gaz hisoblagichlarining doimiy texnik soz bo'lishi ustidan umumiy nazoratni olib boradi; - Yirik hudud ustasi, mahalla gazchisi, uy ichi xizmati chilangari faoliyat samaradorligini nazorat monitoringini olib boradi, ularga rahbarlik qiladi.
14	Mahallabay ishlash xizmati yetakchi muhandisi	- Mahallabay ishlash tizimini yo'lga qo'ygan holda yirik hududlar orqali yetkazib berilgan va qabul qilib olingan tabiiy gaz hajmlarini to'liq iste'molchilarga yetkazib berish bo'yicha lavozim vakolati doirasida nazoratni tegishli bo'limlar bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etadi. Iqtisodiy samarasiz, ma'nan eskirgan tabiiy gazdan foydalanayotgan gaz uskunalarini energiya tejamkor jihozlarga almashtirish bo'yicha mahalla faollari bilan targ'ibotlar olib borilishini tashkil etadi. Hududlardagi elektron gaz hisoblagichlarining doimiy texnik soz bo'lishi ustidan umumiy nazoratni olib boradi; - Yirik hudud ustasi, mahalla gazchisi faoliyat samaradorligini nazorat monitoringini olib boradi.

16	Mahallabay ishlash xizmati yirik hudud ustasi	<p>- Yirik hududlar orqali yetkazib berilgan va qabul qilib olingan tabiiy gaz hajmlarini to'liq iste'molchilarga yetkazib berish bo'yicha tegishli bo'limlar bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etadi. Iqtisodiy samarasiz, ma'nan eskirgan, nostandart tabiiy gazdan foydalanayotgan gaz uskunalarini energiya tejamkor jihozlarga almashtirish bo'yicha mahalla faollari bilan targ'ibotlar olib boradi. Iste'molchilarning foydalanishida bo'lgan gaz qurilmalarini, texnik loyiha hujjatlariga muvofiqligini, hududlardagi elektron gaz hisoblagichlarining doimiy texnik soz bo'lishini ta'minlaydi;</p> <p>- Mahalla gazchisi, uy ichi xizmati chilangari faoliyat samaradorligini nazorat monitoringini olib boradi.</p>
17	Mahalla gazchisi	<p>- Yirik hududlar orqali yetkazib berilgan va qabul qilib olingan tabiiy gaz hajmlarini to'liq iste'molchilarga yetkazib berish bo'yicha tegishli bo'limlar bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etadi. Iqtisodiy samarasiz, ma'nan eskirgan, nostandart tabiiy gazdan foydalanayotgan gaz uskunalarini energiya tejamkor jihozlarga almashtirish bo'yicha mahalla faollari bilan targ'ibotlar olib boradi. Iste'molchilarning foydalanishida bo'lgan gaz qurilmalarini, texnik loyiha hujjatlariga muvofiqligini, hududlardagi elektron gaz hisoblagichlarining doimiy texnik soz bo'lishini ta'minlaydi;</p> <p>- Mahalla hududida gazdan nooqilona foydalanishi, noqonuniy gaz tarmoqlariga ulanish holatlarini oldini olish yuzasidan nazorat monitoring tadbirlarini olib boradi.</p>
18	Yirik iste'molchilar bilan ishlash xizmati boshlig'i	<p>- Yirik iste'molchilarga tabiiy gazni shartnoma shartlari asosida yetkazib berish, ularning tabiiy gazdan oqilona foydalanishlarini bo'yicha ishlarni tashkil etish;</p> <p>- Yirik iste'molchilarni gazdan oqilona va xavfsiz foydalanishlari hamda energo tejamkor qurilmalarini keng joriy etilishi yuzasidan targ'ibotlarni olib boradi.</p>

<b>18</b>	Muhandis-metrolog	<p>- Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda kunlik gaz hajmlari hisobotini tayyorlash va prognoz ko'rsatgichlarga nisbatan tahlilini olib borish, elektron gaz hisoblash uskunalarining arxiv ma'lumotlarini solishtirma tahlilini, metrologik hujjatlar va konfiguratsiyalarini to'g'riligini, EGHUni yechish va o'rnatish dalolatnomalarini tuzish hamda gaz hajmining to'g'riligini solishtirma tahlil qilib, ularni doimiy nazorat qilib borish, iste'molchilarga EGHUlarini metrologik va ishlab chiqaruvchining talablariga mos ravishda o'rnatilganligini muntazam ravishda nazorat qilib borish;</p> <p>- EGHUlarga nazorat muhrlarini belgilangan tartib asosida o'rnatish va ularni nazorat qilish.</p>
<b>19</b>	Suyultirilgan gaz xizmati chilangar-ta'minotchi	<p>- Iste'molchilarga belgilangan reja-grafikka asosan ularning manziliga borgan holda faqatgina ID-karta orqali suyultirilgan gaz bilan to'ldirilgan maishiy gaz ballonlarini yetkazib berish;</p> <p>- Iste'molchilarga maishiy gaz ballondan to'g'ri va xavfsiz foydalanish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish.</p>
<b>20</b>	Suyultirilgan gaz xizmati haydovchisi	<p>- Gaz to'ldirish shoxobchasidan suyultirilgan gaz bilan to'ldirilgan gaz ballonlarni belgilangan yo'nalish marshuriti bo'yicha iste'molchilarga xavfsiz yetkazib berish;</p> <p>- Bo'shagan gaz ballonlarini iste'molchilardan qabul qilib, gaz to'ldirish shoxobchasiga yetkazib berish.</p>